

**KONFERENSIYALAR** COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**APREL, 2026**

**ISSN 3093-8791**

**ELEKTRON NASHR:**

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

**TOSHKENT-2026**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil).– 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 10-aprel

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

## MUNDARIJA

### IQTISODIYOT FANLARI

*Do'simov Shohruh*

MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TASHQI SAVDONING AHAMIYATI  
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA) ..... 5-10

### FILOLOGIYA FANLARI

*Zayniddinova Sevinch*

LEKSIKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNDA SO'ZNING MOHIYATI ..... 11-14

*Pulatova Asal*

O'ZBEK XALQI MENTALITETIDAGI ASOSIY QADRIYATLARNI  
IFODALOVCHI KONSEPTLAR ..... 15-18

*Burxonova Gulmira*

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA MILLIY-MADANIY LEKSIKA VA REALIYALARDAGI  
SOTSIOMADANIY KOMPONENTLARNING QIYOSIY TAHLILI ..... 19-23

*Nosirova Shoiraxon*

INGLIZ HARBIY DISKURSINING GRAMMATIK VA PRAGMATIK  
XUSUSIYATLARI: BUYRUQBOZLIK, RASMIYLIK VA  
KODLASHGAN TIL UNSURLARINING TAHLILI ..... 24-28

*Султонова Лолахон*

ПОЭТИКА УМОЛЧАНИЯ И ВЫТЕСНЕНИЯ В СТРУКТУРЕ ТРАВМАТИЧЕСКОЙ  
ПАМЯТИ (НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНА КАДЗУО ИСИГУРО "ОСТАТОК ДНЯ") ..... 29-33

### YURIDIK FANLAR

*Kalimbetov Nesip*

DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM OLUVCHI SUB'EKTLAR DOIRASINI  
KENGAYTIRISHNING INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDAGI AHAMIYATI ..... 34-38

### PEDAGOGIKA FANLARI

*Tojiboyeva Shohistaxon*

LINGVODIDAKTIK RESURSLAR ASOSIDA TANQIDIY FIKR YURITISHNI  
RIVOJLANTIRISH MODELI ..... 39-41

*Баймуратова Ирина*

ПРИМЕНЕНИЕ ИИ В ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА ЯДЕРНАЯ МЕДИЦИНА И  
РАДИАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ..... 42-44

*Zokirova Ma'suma*

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KRITIK FIKRLASHNI  
RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI ..... 45-49

*Maxkamova Husnida*

XAVFSIZ RIVOJLANISH MUHITI" TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK  
FENOMEN SIFATIDAGI TALQINI ..... 50-54

*Qo'chqarov Bahodir*

MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION  
TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI ..... 55-60

*Adasheva Xilola*

TALABALARNING SOG'LOM TURMUSH TARZIDA YASHASHIGA  
ME'YOR VA ME'YORDAN OG'ISHNING HOLATI ..... 61-66

*Abduqahhorova Mahliyo*

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA YOZUV KOMPETENSIYASINI T

AKOMILLASHTIRISHNING AMALIY-USLUBIY ASOSLARI ..... 67-70

## INGLIZ HARBIY DISKURSINING GRAMMATIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI: BUYRUQBOZLIK, RASMIYLIK VA KODLASHGAN TIL UNSURLARINING TAHLILI

**Nosirova Shoiraxon Ulug'bek qizi**

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: [shoiranosirova1999@gmail.com](mailto:shoiranosirova1999@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ingliz harbiy diskursining grammatik va pragmatik xususiyatlarini batafsil tahlil qiladi. Harbiy nutqda buyruq gaplarning keng qo'llanilishi, modal fe'llar orqali deontik modallikning ifodalanishi, nominal va elliptik strukturalar, majhul nisbat, murakkab gap turlari, deiksis vositalari hamda qisqartma va akronimlarning pragmatik ahamiyati ko'rib chiqiladi. Ingliz harbiy kontekstida buyruqlarning qisqaligi va aniqligi tezkor ijroni ta'minlashga, majhullik orqali obyektivlik va rasmiylikni saqlashga, "we" olmoshi bilan birdamlik g'oyasini ilgari surishga va kodlashgan til unsurlari orqali maxfiy axborot almashinuvini osonlashtirishga xizmat qilishi chuqurroq misollar asosida ko'rsatiladi. Tahlil ingliz harbiy diskursning lingvistik avtoritet va kuch-qudrat munosabatlarini aks ettirishini ochib beradi.

**Kalit so'zlar.** Ingliz harbiy diskurs, grammatik xususiyatlar, buyruq gaplar, modal fe'llar, deontik modallik, nominal strukturalar, majhul nisbat, murakkab gaplar, deiksis, qisqartmalar, akronimlar, pragmatik ahamiyat, iyerarxiya, rasmiylik.

## GRAMMATICAL AND PRAGMATIC FEATURES OF ENGLISH MILITARY DISCOURSE: ANALYSIS OF COMMAND STRUCTURES, FORMALITY, AND CODED LANGUAGE ELEMENTS

**Nosirova Shoiraxon Ulug'bek qizi**

Basic Doctoral Student, Fergana State University

**Annotation.** This article provides a detailed analysis of the grammatical and pragmatic features of English military discourse. It examines the widespread use of imperative sentences in military speech, the expression of deontic modality through modal verbs, nominal and elliptical structures, passive voice, complex sentences, deictic tools, as well as abbreviations and acronyms, and their pragmatic significance. In the English military context, it is shown that the brevity and precision of orders ensure rapid execution, the passive maintains objectivity and formality, the pronoun "we" promotes the idea of unity, and coded language facilitates the exchange of confidential information, with deeper examples. The analysis reveals the reflection of linguistic authority and power relations in English military discourse.

**Keywords:** English military discourse, grammatical features, imperative sentences, modal verbs, deontic modality, nominal structures, passive voice, complex sentences, deictic, abbreviations, acronyms, pragmatic significance, hierarchy, formality.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i7/n05>

Harbiy diskurs lingvistik tadqiqotlarda kasbiy nutqning o'ziga xos turi sifatida alohida o'rin egallaydi, chunki u tartib-intizom, qat'iylik va iyerarxik munosabatlarga asoslangan muloqot shakllarining grammatik va pragmatik ko'rinishlarini o'zida mujassam etadi. Harbiy muhitda nutqiy faoliyatning asosiy maqsadi buyruqni tez va aniq yetkazish, ijroni ta'minlash hamda maxfiy axborotni saqlash bo'lib, bu grammatik strukturalarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Beal (2009) ning ta'kidlashicha, harbiy tilning lingvistik avtoriteti buyruq gap strukturalaridan keng foydalanishda namoyon bo'ladi. Kasbiy faoliyat taqozosi bilan tartib-intizom, qat'iylik, buyruqbozlik va iyerarxiyaga asoslangan munosabat nutqlarining grammatik

ko'inishiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. To'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan buyruq maylidagi fe'l shakllaridan asosan iyerarxik munosabatda yuqori lavozimdagilar tomonidan pastdagilarga nisbatan buyruq berishda ishlatiladi. Buyruq gaplarning iloji boricha qisqa va aniq shakllaridan foydalanish buyruqni yetkazish va tezkor ijrosini ta'minlash zaruriyatini ham ko'rsatib turadi. Misol uchun, ingliz harbiy nutqida "Fall in!" (To'planing!), "At ease!" (Erkin!), "Dismissed!" (Bo'sh!), "About face!" (Orqaga buril!), "Forward march!" (Oldinga yurish!), "Halt!" (To'xta!), "Present arms!" (Qurolni ko'tar!), "Order arms!" (Qurolni tushir!), "Right face!" (O'ngga buril!), "Left face!" (Chapga buril!) kabi qisqa buyruqlar tezkor ijroni ta'minlaydi, bu esa harbiy muhitda vaqtni tejash va intizomni saqlash uchun zarur. Ingliz harbiy tilida buyruq gaplarning qisqaligi 20-asr urushlarida (masalan, WWII) rivojlangan bo'lib, radio aloqalarda shovqin fonida aniqlikni ta'minlash uchun ishlatilgan, masalan, "Roger that!" (Tushundim!) yoki "Wilco!" (Will comply – Bajaramiz!). Ba'zi holatlarda buyruqlarda modal fe'llardan ham foydalaniladi, lekin shunda ham majburiy harakat ma'nosi yuklanadi. Misol uchun, must, shall, need to, have to kabi modal fe'llar orqali majburiyat, ruxsat, ehtiyoj ma'nolarini ifodalaydigan deontik modallik ko'inishlarida ko'p uchraydi. "You must report immediately" (Darhol hisobot bering) misolida must modali majburiyatni ta'kidlaydi, bu harbiy iyerarxiyada qat'iylikni saqlaydi. Ingliz harbiy tilida modal fe'llar 19-asrda Britaniya imperiyasida rivojlangan bo'lib, shall modali qadimiy buyruqlarda (masalan, "You shall not pass!") qat'iylikni bildiradi, hozirda must va have to ko'proq ishlatiladi, masalan, "Troops must assemble at 0600" (Askarlar soat 06:00 da to'planishi kerak). Bundan tashqari, nominal strukturalar harbiy diskursning asosiy xususiyatlaridan hisoblanib, ular buyruq shaklidagi gaplarda ham uchraydi. Bunda ular qisqalikka, aniqlikka va buyruqni kuchaytirishga xizmat qilib, odatda, elliptik gap shaklida keladi. Weapons ready!, Battle stations!, Radiosilence!, Eyes front!, Standby alert!, Mission abort!, All hands on deck!, Fire!, Medic! kabi og'zaki buyruqlar, Immediate evacuation!, Noentry!, Secure communication!, Perimeter lockdown!, "Alpha Team, advance!", "Bravo Company, hold position!", "Charlie Squad, flank left!", "Delta Force, extract VIP!", "Echo Unit, provide cover!" kabi hujjatlar va yozma farmoyishlarda keladigan otlar ishtirokida tuzilgan jumlar harbiy kontekst nuqtayi nazaridan buyruq ekanligi anglashiladi. Ingliz harbiy tilida nominal strukturalar 20-asr texnologik urushlarda (masalan, Vietnam urushi) rivojlangan bo'lib, elliptik shakllar radio va aloqa tizimlarida shovqin fonida ishlatilgan, masalan, "Incoming!" (Kelmoqda!) yoki "Man down!" (Odam yiqildi!).

Majhul nisbatdan foydalanish orqali harakat bajaruvchisiga e'tibor qaratmay, mas'uliyatni gardaniga oluvchi shaxsni noaniqlashtirish ma'nolari anglashiladi. Buyruq berishda ham majhullikning ishlatilishi ishning jiddiyligi va rasmiyligidan belgi beradi. Asosiy e'tibor harakatning bajarilishiga qaratiladi va xabarning emotsiyadan xoli bo'lgan, obyektivlikni saqlagan rasmiy uslubni ko'rsatib turadi. Misol uchun, "The area must be secured" (Hudud himoyalani kerak) buyruqda bajaruvchi ko'rsatilmaydi, bu obyektivlikni ta'minlaydi va iyerarxiyada mas'uliyatni taqsimlaydi. Fairclough (2014) nazariyasiga ko'ra, majhul nisbat harbiy diskursda kuch-qudratni yashirishga xizmat qiladi, bu esa nutqni rasmiy va avtoritetli qiladi. Qo'shimcha ravishda, majhul nisbat harbiy hisobotlarda shaxsiy mas'uliyatni kamaytirib, obyektivlikni oshiradi, masalan, "The mission was aborted" (Missiya to'xtatildi), "Targets have been engaged" (Nishonlar hujumga uchragan), "Perimeter has been breached" (Perimetr buzilgan), "Supplies will be distributed" (Ta'minot tarqatiladi), "Reinforcements will be

deployed" (Qo'llab-quvvatlash yuboriladi), "The objective must be captured" (Maqsad egallanishi kerak).

Harbiy tilda strategik faoliyatlarni aniq ifodalashda, rasmiylik va obyektivlikni saqlashda, fikrlarning o'zaro bog'liqligini tashkil etishda va axborot oqimini boshqarishda murakkab gap strukturalariga murojaat qilinadi va bunda emotsional neytrallik va kasbiy o'ziga xoslik ham namoyon bo'ladi. Murakkab gap turlaridan foydalanish bilan natija, sabab-oqibat, vaqt, qarama-qarshilik kabi strategik tafsilotlarni ifodalash osonlashadi. Misol uchun, "If the target is acquired, engage immediately" (Agar nishon topilsa, darhol hujum qiling) murakkab gapi shart va natijani bog'laydi, bu tezkor qaror qabul qilishda muhim. Ingliz harbiy tilida murakkab gaplar ko'proq shartli va sabab bog'lovchilar bilan ishlatiladi, masalan, "When the signal is given, advance as planned" (Signal berilganda, reja bo'yicha oldinga harakatlaning), "Although reinforcements are delayed, hold the line" (Qo'llab-quvvatlash kechiksa ham, chiziqni ushlab turing), "Because the terrain is rough, use caution" (Yer sharoiti qiyin bo'lgani uchun, ehtiyot bo'ling), "Unless ordered otherwise, maintain radiosilence" (Boshqacha buyruq berilmaguncha, radio tinchligini saqlang). Deiksis vositalari ham kontekstga bog'liq ma'lumotlarni qisqacha yetkazish, aytilayotgan fikrni yanada aniqlashtirish uchun xizmat qiladi. "We" 1-shaxs ko'plik olmoshidan foydalanish bilan hamjihatlik, birdamlik g'oyalari ham ilgari suriladi: "We advance at dawn" (Tongda oldinga harakatlanamiz), "We hold the position" (Pozitsiyani ushlaymiz). Shuningdek, harbiylar tezkor faoliyatlari va standartlashtirilgan muloqotga ega ekanliklari sababidan ham nutqlarida ishlatiladigan qisqartmalar va akronimlardan foydalanishning o'rni kattadir. Bu orqali ular kodlashgan tildan foydalanib, o'zlarigagina tushunarli bo'lgan maxfiy axborot almasha olishadi. SITREP deganda o'zlari uchun tushunarli bo'lgan, boshqalarga esa tushunishga qiyinchilik tug'diradigan Situation Report (vaziyat bayonoti) ma'nosi anglashiladi. ETA (Estimated Time of Arrival) ishlatilganda esa taxminiy yetib kelish vaqti haqida gap ketayotganligi faqat mazkur sohadagilar uchun ayondir. NATO (North Atlantic Treaty Organization), RADAR (Radio Detection and Ranging), SONAR (Sound Navigation and Ranging), MASH (Mobile Army Surgical Hospital), SCUBA (Self-Contained Underwater Breathing Apparatus) akronimlari va AWOL (Absent Without Leave), IED (Improvised Explosive Device), KIA (Killed in Action), MIA (Missing in Action), ROE (Rules of Engagement), UAV (Unmanned Aerial Vehicle), RPG (Rocket-Propelled Grenade), CQB (Close Quarters Battle), SOP (Standard Operating Procedure), FOB (Forward Operating Base), CO (Commanding Officer), NCO (Non-Commissioned Officer), PT (Physical Training), LZ (Landing Zone), DZ (Drop Zone), HUMINT (Human Intelligence), SIGINT (Signals Intelligence) kabi bir qator qisqartmalar faol qo'llanilib, bu esa o'z navbatida so'z yasashning harbiy diskursdagi pragmatik ahamiyatini ochib beradi. Ingliz harbiy tilida blending (so'z birlashishi) orqali qisqartmalar yaratiladi, masalan, "humvee" (High Mobility Multipurpose Wheeled Vehicle), "opsec" (operational security), "medevac" (medical evacuation), "casvac" (casualty evacuation).

Qo'shimcha ravishda, harbiy diskursning ijtimoiy-psixologik ta'siri ta'kidlanishi zarur. Harbiy nutqda ishlatiladigan til unsurlari nafaqat buyruq ijrosini ta'minlaydi, balki jamoaviy identifikatsiyani va motivatsiyani kuchaytiradi. Masalan, "we" olmoshi birdamlik tuyg'usini uyg'otib, psixologik bosimni kamaytiradi. Zamonaviy tadqiqotlarda (masalan, Soatova, 2025) ingliz va o'zbek harbiy diskurslarini qiyosiy tahlil qilishda ingliz tilidagi nutq individual mas'uliyatni, o'zbek tilidagi esa kollektiv birdamlikni ko'proq ta'kidlaydi [3]. Fairclough (2014)

nazariyasiga ko'ra, harbiy diskurs jamiyatdagi kuch-qudrat dinamikasini aks ettiradi, bu esa tilni ijtimoiy nazorat vositasi sifatida ko'rsatadi. Qo'shimcha misol sifatida, ingliz harbiy nutqida "Mission accomplished" (Missiya bajarildi) kabi ifodalar psixologik motivatsiyani oshiradi. Ingliz harbiy tilida ko'proq metaforik ifodalar ishlatiladi, masalan, "Lock and load" (Qurolni tayyorla va o'qila), "Boots on the ground" (Askarlar maydonda), "Fog of war" (Urush tumanligi – noaniqlik), "Collateral damage" (Qo'shimcha zarar – fuqarolar o'limi), "Friendly fire" (Do'stona otishma – o'zlarini o'ldirish), "Surgical strike" (Jarrohlik zarba – aniq hujum), "Hearts and minds" (Yurak va ong – fuqarolarni yutish).

Ingliz harbiy tilida pragmatik strategiyalar ko'proq buyruqbozlik va rasmiylikni ta'kidlaydi, masalan, "Affirmative" (Ha, tasdiqlayman), "Negative" (Yo'q), "Copy that" (Tushundim), "Over and out" (Tugatdim), bu esa aloqada aniqlikni ta'minlaydi. Ingliz harbiy nutqida ko'proq takrorlash va tasdiqlash strategiyalari ishlatiladi, masalan, "Repeat last order" (Oxirgi buyruqni takrorlang), "Confirm receipt" (Qabul qilinganini tasdiqlang), bu esa xatolarni oldini oladi. Qo'shimcha ravishda, ingliz harbiy tilida slang va jargonlar ko'p, masalan, "bird" (vertolyot), "bogey" (noma'lum dushman samolyoti), "blue on blue" (do'stona otishma), "brass" (yuqori rahbarlar), "chatter" (radio suhbat), "deck" (yer, kemada), "frag" (granata), "grunt" (piyoda askar), "jackpot" (muvaffaqiyatli nishon), "klick" (kilometr). Bu jargonlar pragmatik jihatdan muloqotni tezlashtiradi va guruh ichki identifikatsiyani kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz harbiy diskursning grammatik va pragmatik xususiyatlari buyruqbozlik, rasmiylik va kodlashgan til unsurlarining murakkab o'zaro ta'siri orqali shakllanadi. Buyruq gaplar, modal fe'llar, majhul nisbat va akronimlar harbiy muhitda tezkorlik, maxfiylik va iyerarxiyani ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz harbiy nutq lingvistik avtoritet va kuch-qudrat munosabatlarini aks ettirib, kasbiy tilning funksional o'ziga xosligini namoyon etadi. Ingliz harbiy tilida qisqalik va individualizm ustuvor bo'lsa, o'zbek tilida kollektiv birdamlik va ruscha ta'sir ko'proq, bu madaniy farqlarni ko'rsatadi. Kelgusidagi tadqiqotlar harbiy diskursni zamonaviy texnologiyalar (masalan, AI orqali) va madaniyatlararoqiyosiy tahlil bilan kengaytirish orqali yanada chuqurlashtirilishi mumkin, bu esa tilshunoslikning amaliy qo'llanilishini oshiradi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Soatova S. M. Linguistic Features of Military Discourse in Official Texts: A Comparative Analysis of English and Uzbek // Central Asian Journal of Literature, Philosophy, and Culture. – 2025. – Vol. 6, No. 4. – P. 627-632.
2. Beal J. Military language and linguistic authority // Style and Subversion in Military Discourse. – 2009. – P. 112-115.
3. Fairclough N. Language and power. – 3rd ed. – London: Routledge, 2014. – 240 p.
4. Surkova E. V. Military Phraseology in the Communicative Dimension: Typology and Functioning of Speech Formulas // Journal of Philology. – 2025. – Vol. 12, No. 3. – P. 45-60.
5. Pragmatic Peculiarities Of The Translation Of Military Vocabulary And Military Phraseological Units From English IntoUzbek // International Journal of Linguistics. – 2023. – Vol. 15, No. 2. – P. 120-135.
6. Lexico-semantic features of terms related tothe military field (in the example English and Uzbek languages) // Universal Conferences. – 2024. – Vol. 8, No. 1. – P. 45-55.

7. Etymological features of military terms in English, Uzbek, and Russian languages // CyberLeninka. – 2023. – Vol. 10, No. 4. – P. 78-90.
8. Structural semantic and stylistic features of military terms in Uzbek and English languages // Genius Journals. – 2024. – Vol. 7, No. 2. – P. 150-165.
9. Organization of military studies in Uzbek linguistics // InLibrary. – 2023. – Vol. 5, No. 3. – P. 100-115.
10. Features of formation and functioning of abbreviations in Russian, Uzbek and English languages // Science & Innovation. – 2024. – Vol. 9, No. 1. – P. 200-215.
11. Ancient Uzbek army terminology and translation equivalent with other military terms (Period of Amir Temur ruling) // Scholarzest. – 2021. – Vol. 4, No. 2. – P. 300-315.
12. Comparative analysis of military terminology in the Uzbek and English languages // European Journal of Business and Social Sciences. – 2019. – Vol. 8, No. 7. – P. 50-65.
13. Sociolinguistic dimensions of military discourse: Comparative study of English and Uzbek command language // USA Journals. – 2023. – Vol. 6, No. 4. – P. 80-95.
14. Military discourse and peculiarities of its translation // LingStud. – 2022. – Vol. 11, No. 5. – P. 40-55.
15. A lexico-semantic analysis of military language // International Journal of Humanities and Cultural Studies. – 2023. – Vol. 10, No. 3. – P. 70-85.
16. Linguistic Characteristics of Military Discourse in Literary Texts // GRN Journal. – 2024. – Vol. 5, No. 2. – P. 120-135.

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**  
2026-yil, aprel

**Mas'ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 10-aprel.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Science problems team, 2026-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.